

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI.

Xolmurodova Adelinabonu Bahodir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

1-kurs magistranti. e-mail: bozarovaadlina@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va ularning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada an'anaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalarning turlari, ularni qo'llashning afzalliklari va ta'lim jarayonidagi o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarning zamonaviy ta'lim tizimidagi dolzarbligi va kelajakda ularni yanada rivojlantirish istiqbollari haqida taklif va xulosalar bayon etilgan.*

Абстрактный: *В данной статье подчеркивается значение педагогических технологий в образовательном процессе и их роль в повышении качества образования. Педагогические технологии являются важным инструментом эффективной организации и управления образовательным процессом. В статье анализируются виды традиционных и инновационных педагогических технологий, преимущества их использования и их роль в повышении интереса учащихся к образовательному процессу. При этом представлены предложения и выводы об актуальности педагогических технологий в современной системе образования и перспективах их дальнейшего развития в будущем.*

Abstract: *This article discusses the importance of pedagogical technologies in the educational process and their role in improving the quality of education. Pedagogical technologies are an important tool for the effective organization and management of the educational process. The article analyzes the types of traditional and innovative pedagogical technologies, the advantages of their use, and their role in increasing students' interest in the educational process. At the same time, proposals and conclusions are made about the relevance of pedagogical technologies in the modern education system and the prospects for their further development in the future.*

Kalit so‘zlar: *Pedagogik texnologiyalar, ta’lim jarayoni, an’anaviy texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim, pedagogik yondashuv, inkluziv ta’lim, innovatsiya.*

Ключевые слова: *Педагогические технологии, образовательный процесс, традиционные технологии, информационно-коммуникационные технологии, современное образование, педагогический подход, инклюзивное образование, инновации.*

Keywords: *Pedagogical technologies, educational process, traditional technologies, information and communication technologies, modern education, pedagogical approach, inclusive education, innovation.*

Kirish.

Bugungi kunda ta’limning o’smir yoshidagi o’quvchilarni fanga qiziqtirish, qolaversa, ularda mavzu yuzasidan kerakli bilim, ko’nikma hamda malakalarini shakllantirish ta’limda muhim vazifalardan biridir. Hozirda ta’lim texnologiyasi yordamchi vosita bo’lib qolmay balki, o’quv jarayonining rivojlanishida katta rol o’ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o’zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o’z navbatida, o’qituvchi va o’quvchining pedagogik tafakkuriga o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Pedagogik texnologiya-ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o’rganadi. Ta’lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta’limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta’lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o’tkazishga hamda ta’lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan. Eksperimental va innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari innovatsion o’quv dasturlari va loyihalarini amalga oshirish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish uchun o’z vakolatlari doirasida shart-sharoitlar yaratadi. Iqtisodiy rivojlanish va innovatsion faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan oliy ta’lim tashkilotlari olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish uchun tegishli shart-sharoitlar, shuningdek oliy ta’lim tashkilotlari ta’lim jarayonining yanada takomillashtirilgan shakllariga bosqichma-bosqich o’tishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Ta’lim tashkilotlari eksperimental va innovatsion faoliyatda masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishi mumkin. Hozirgi paytda pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar, ta’lim texnologiyasi, o’qitish texnologiyasi iboralari tez-tez tilga olinmoqda. Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta’lim

muammolariga oid ma’ruzalar, rasmiy hujjatlarda «yangi pedagogik texnologiya», «ilg’or pedagogik texnologiya», «zamonaviy ta’lim texnologiyasi» ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga tushirilmagan, entsiklopediyalarda izohlanganicha yo‘q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko‘pgina ta’riflari mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb yuritiladi. O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o‘tishi ham mumkin. O‘qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta’limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e’tirof etish lozim. Har bir o‘qituvchi ta’limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O‘z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innnovatsiyalar haqida yangi ma’lumotlarni o‘rgangan holda o‘qitish jarayonida ularni qo‘llab, misollar keltirib, ta’limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o‘tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi o‘z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiya - bu o‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo‘lib, u ta’limning zaruriy sifatini ta’minlaydi va jadallashgan ilmiy texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etishning izchil metodidir. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo‘lib hisoblanadi.

Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg’or ta’lim texnologiyalarini joriy qilish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

Quyidagilar pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan.

tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash;

pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish;

pedagogik ta'lim sohasining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o'quv-me'yoriy va ta'lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish;

sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish;

pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o'rganib borish, ular bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish;

oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish;

yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish to'g'risida bir qator qarorlar imzolandi..

Ma'lumki, har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonining faol sub'ektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo'yicha kam kuch va vaqt sarflangan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beruvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi.

Tadqiqot metodlari.

1. Nazariy tahlil

Pedagogik texnologiyalar haqidagi ilmiy adabiyotlarni, tadqiqot ishlarini va amaliy qo'llanmalarni o'rganish.

An'anaviy va innovatsion texnologiyalarning nazariy asoslarini tahlil qilish.

2. Taqqoslash usuli

An'anaviy ta'lim texnologiyalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qiyosiy tahlil qilish.

Innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi samaradorligini taqqoslash.

3. Empirik tadqiqotlar

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash tajribasini o'rganish.

O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma yoki intervyu o'tkazish orqali fikr-mulohazalarni yig'ish.

4. Amaliy tajriba usuli

Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida sinab ko'rish va ularning samaradorligini baholash.

Ushbu texnologiyalarning o'quvchilarning bilim darajasiga ta'sirini kuzatish.

5. Statistika tahlil

Ta'lim texnologiyalarini qo'llashdan oldin va keyingi natijalarni statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish.

Ta'lim sifatiga bo'lgan ta'sirni raqamli ko'rsatkichlar yordamida baholash.

Natija va muhokama.

Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi: Aynan o'smir yoshidagi o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda qanday usullardan foydalanish mumkin? Albatta bunday hollarda o'quvchilarni darsga qiziqtirish va ularda tinglay olish qobiliyatini shakllantirishda turli xil metodik o'yinlar va usullar yaxshi samara beradi. Darhaqiqat, millionlab farzandlarimiz qalbiga ilm-fan ziyosini singdirib, ularni el-yurtga munosib insonlar etib tarbiyalayotgan zahmatkash va olijanob ustozlarimizga har qancha tahsinlar aytsek, arziydi. Yuqoridagi aytilgan fikrlarda hulosasi qiladigan bo'lsak, hozirgi kunda o'qituvchi shunday imkoniyatlardan foydalanib o'z ustida ishlashi va o'quvchilarga to'g'ri yo'l tanlashda yo'lchi yulduz vazifasini bajarish uchun harakat qilishi kerak. Shuni ham takidlab o'tish Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi deb bejiz aytmagan yurtboshimiz. Darhaqiqat yosh avlodni tarbiyalashda maktabning o'rni kattadir. Shuni aytish lozim, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev —Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi, degan fikrlari asnosida biz o'qituvchilar o'z ustimizda ishlashimiz lozim. Yosh avlodning tarbiyasida asosiy bosh bo'g'in bo'lishimizni hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak. Mamlakat kelajagi, uning go'zal istiqboli saloyihatli yoshlarning ilg'or va innovatsion g'oyalari asosida yuksaladi. Bunaqangi taraqqiy topgan davlat barpo etish uchun esa, bugungi kun juda ham mas'uliyatli va shijoatli pedagog xodimlarimizdan intiluvchan, bilimga chanqoq o'quvchilarni voyaga yetkazishimizni talab qiladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon uchun yosh avlodni munosib ravishda tayyorlab borish, tarbiyalash, zamonaviylik tushunchasi bilan, insoniylik xususiyatlarini chambarchaslikda

ular onggiga singdira olish ota-ona bilan bilan teng qatorda o‘qituvchilardan ham ko‘p mehnat talab qiladi. Izlanish, intilish va xohish bo‘lsagina bu kabi vaziyatlar ijobiy tus oladi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo‘lib fikrlash demakdir. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Xulosa.

Xulosa qilib, keling, yana bir muhim jihatni ko‘rib chiqaylik. O‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish, qoida tariqasida, pedagogik texnologiyalarni tanlash tamoyillariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Oldindan va keyingi testlar shuni ko‘rsatadiki, mobil qurilmalarda ilovalardan foydalanish unumdorlik va o‘rtacha talabalar o‘rtasidagi farqni qisqartiradi. Ayrim ta‘lim dasturlari o‘quvchilarga javoblar bo‘yicha fikr-mulohazalarini olish va muammolarni hal qilishda hamkorlikni rag‘batlantirish orqali guruh ishini yaxshilaydi. O‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi; hamisha pedagog va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog‘liq. O‘qitish jarayonida qo‘yilgan maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta‘lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, ularning har ikkalasi ham ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o‘zlari xulosa chiqara olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsagina samara berishi mumkin. Har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, yaxni o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.02.2020 yildagi PQ 4623-son Pedagogik ta’lim sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. Qodirova, M. (2020). Psixologiya fanlarini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.
3. Qodirova, M. (2020). Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg‘ulotlarning o‘rni. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo‘lib, u ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mohigul Olimjon
6. Qizi Shamsiyev ABDULLAYEVA SHAXZODA ABDULLAYEVNA ASKAROV ABROR DAVLATMIRZAYEVICH UMUMIY PEDAGOGIKA
7. INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR TA’LIM TARAQQIYOTINING ASOSIY KUCHI VA TUTGAN O‘RNI G.D.Tosheva B.Toirov
8. Pedagogika o‘qitish metodikasi Pedagogika o‘qitish metodikasi Ko‘rganlar, jami: 12905 Janr/bo‘lim: Pedagogika, Darsliklar, Fan va ta’lim Muallif: O‘tkir Yo‘ldoshev